HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH ZARURLIGI

Kamilov Dilshod To‘ychi o‘g‘li
Sambhram universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.



Annotatsiya

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘grisida” gi farmonining 26-maqsadida: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar horijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish belgilangan. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish, 2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish vazifasi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, iqtisod, yangi tizim, jozibadorlik, faol investitsiya, eksport hajmlari, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, investitsiya muhiti.

Аннотация

Определены меры по дальнейшему улучшению инвестиционного климата в нашей стране и повышению его привлекательности, привлечению иностранных инвестиций. 26 указа Президента Республики Узбекистан" О Стратегии развития нового Узбекистана " на 2022-2026 годы предусматривает: дальнейшее улучшение инвестиционного климата в стране и повышение его привлекательности, принятие мер по привлечению в ближайшие пять лет 120 миллиардов долларов США, в том числе 70 миллиардов долларов иностранных инвестиций. Обозначена задача по внедрению новой системы по эффективному использованию инвестиций и увеличению объемов экспорта, по принципу "снизу вверх", реализации стратегии привлечения иностранных и местных инвестиций до 2026 года.

Ключевые слова: инвестиции, экономика, новая система, привлекательность, активные инвестиции, объемы экспорта, стратегия развития нового Узбекистана, инвестиционный климат.

Annotation

In our country, measures are established to further improve the investment environment and increase its attractiveness, attract foreign investment. In order 26 of the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated 2022-2026 "on the development strategy of New Uzbekistan": measures to further improve the investment climate and increase its attractiveness in the country, attract 120 billion US dollars in the next five years, including 70 billion dollars in foreign investments. On the effective use of investments and increasing export volumes, on the basis of the "bottom-up" principle, the task of establishing a new system is indicated, to implement a strategy for attracting foreign and domestic investments until 2026.

Keywords: investment, economy, new system, attractiveness, active investment, export volumes, development strategy of New Uzbekistan, investment environment.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya sohasidagi islohotlar iqtisodiy barqarorlik, tarkibiy tuzilmalar islohotini belgilovchi muhim bir omil hisoblanadi. Aholi turmush farovonligini o'sishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish hamda uni hududlarda izchil amalga oshirish iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat hududlari investitsiyaviy faoliyati to'g'risida yetakchi olimlarning fikricha, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini baholashning uch asosiy elementi mavjud: bular iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbollilik darajasi, korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi, hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini baholashdir[13]. Mamlakat hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashning asosiy elementlari sirasiga: hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi, investitsiya infratuzilmasi, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi darajasi, hududda investitsiya faoliyatini yuritish xavfsizligi holati hamda hudud demografik tavsifi kiritilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Respublikamizda investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi real sektor korxonalarini rivojlantirishga va ularni texnik-texnologik yangilashga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda mazkur tushunchaning mohiyati, mazmuniga e'tibor qaratsak, «Investitsiya» o'zi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, solish, kiritish ma'nosini bildiradi va ushbu tushuncha bu so'zning tor va keng ma'nolarida qo'llaniladi. Uning mazmuni va mohiyatini birgina ma'nosini aniqlash juda mushkuldir. Iqtisodiyot ilmining turlicha bo'limlarida hamda amaliy faoliyatning turlicha yo'nalishlarida soha va obyektlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga turlicha ma'no kiritiladi. Investitsiya so'zi inglizcha «investments» so'zidan olingan bo'lib,

[13]Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. - К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. – С. - 102.

«kapital qo‘yilma», «qo‘yish», «safarbar etish» ma’nolarini anglatadi. Investitsiya (sarmoya) – daromad yoki foyda olish maqsadida mablag‘ni muayyan muddatda tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari (obyektlari)ga yo‘naltirishni anglatadi. Shuni aytish lozimki, dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida biror mamlakat investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra: “Investitsiyalar bu – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar kiradi” [14].

Investitsiyalardan samarali foydalanishni boshqarishga ta’sir etuvchi eng muhim omillar quyidagilardir: mamlakatdagi siyosiy barqarorlik; iqtisodiyotning ochiqligi; investitsiya jarayonining institutsional va infrastruktura muhitining holati va rivojlanganligi; moliya-kredit tizmining holati; investitsiya kafolatlari va sug‘urtalash. Davlat kafolatlari investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlari va manfaatlarini ta’minlashga va investitsiyalarni himoyalashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini namoyon etadi. Davlat kafolatlari tizimi huquqiy, mulkiy, moliyaviy va boshqa bir qator kafolatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya mablag‘lari uchun hududning investitsiyaviy jozibadorligini aniqlovchi quyidagi omillarni farqlashimiz mumkin: arzon va malakali mahalliy ishchi kuchining mavjudligi; uzoq muddatli rejalarda mamlakat bozorining sig‘imliligi va miqdori; mamlakatning jo‘g‘rofiy joylashishi; hududlarda boy tabiiy resurslarning mavjudligi; davlat boshqaruv organlarining siyosati va harakatlari.



1-rasm. Hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

14O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni..

Investitsiyalardan samarali foydalanishni boshqarish munosabatlarining iqtisodiy mazmun-mohiyati, ahamiyati, unga ta’sir etuvchi omillar, xalqaro amaliyot va tajribalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan mamlakat va investorlar xavf-xatarlari hamda manfaatlarini hisobga olgan holda yaratib berilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar tizimiga bog‘liqdir. Shu bilan birga, hududlarda investitsiya muhitini shakllantirishning ayni vaqtdagi holati quyidagi to‘rtta asosiy guruh omillaridan, ya’ni soliq, bojxona, valyuta va sug‘urta munosabatlari tizimlaridagi omillardan tashkil topgan bo‘lib, bu omillar investitsiya imtiyozlari sifatida e’tirof etiladi. Investitsiyalar hududlarning doimiy rivojlanishini ta’minlab moliyaviy resurslarni jamlash hisobiga shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi korxonalarni sotib olish, biznesning yangi yo‘nalishlarini egallashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagicha guruhlanadi (1-rasm).

Hududiy xususiyatlarni e’tiborga olgan holda investitsiyalarni jalb qilishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi:

- investitsion hamkorlik munosabatlarni yaratish dasturini ishlab chiqish;
- maqsadga yo‘naltirilgani loyihalar taqdimotini amalga oshirish va ularni baholash mexanizmlarini takomillashtirish;
- o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvlar va bitimlarni tuzish hamda ularning monitoringi olib borish;
- mahalliy, xorijiy investorlarga hamda maqsadli loyihalarga maxsus imtiyozlar, preferensiyalar berish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, hudud imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududlarga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgan investitsiya siyosati bo‘yicha masalalarni kompleks hal qilishda, quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozimdir:

- hududni strategik taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi rivojlantirish dasturlarining o‘z vaqtida bajarilishi ustidan qat’iy monitoring olib borish;
- hududiy iqtisodiyotini rivojlanishini rag‘batlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy va chet el investitsiyalarini samarali loyihalarga jalb qilish;
- hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmani rivojlantirish;
- tadbirkorlik muhitiga innovatsiya texnologiyalarini tadbiq etish asosida hududiy korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish jarayonida tashqi va ichki imkoniyatlardan keng foydalanish;
- amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari va imkoniyatlari haqida ma’lumotlar bazasini yaratish, bu borada axborot kommunikatsion tizimlarini yaxshilashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni..
3. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. - К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. – С. - 102.
4. D. Komilov, G.Umirova. Xorijiy investitsiyalar tahlili. Uslubiy qo‘llanma. - Jizzax: 2023.
5. Bekmurodov A.Sh., Korieva YO.K. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2011. - 196 b.
6. Korneva YO.K., Nematov I.U., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. Ta’lim texnologiyasi. - T.: TDIU, 2010. - 154 b.
7. Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

8. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

9. Dilshod To'ychi o'gli, K., Abdujalil o'g'li, Y. F., & Abdujalil o'g'li, A. B. (2023). Analysis of the Current State of the Bank Risk Management System. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(1), 60-64.

10. Kamilov, D., & Shayzaqova, S. (2024). Mamlakatga investitisiyalar oqimini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashgan hududlarni jalb qiluvchanligini oshirish. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, *2*(4), 105-110.